



MAHALLIY BYUDJETLAR DAROMADLARI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA HUDUDLAR SOLIQ POTENSIALINI OSHIRISH

Meyliyev Obid Raxmatullayevich

Toshkent moliya instituti mustaqil tadqiqotchisi, PhD, dotsent.

ARTICLE INFORMATION

Volume: 1

Issue: 1

DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss1/a11

ABSTRACT

Maqolada mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligiga erishishda hududlar soliq potentsialini oshirishning ahamiyati va ilmiy-amaliy asoslari yoritib berilgan. Hududlar soliq potentsialini aniqlash va amalga oshirish hamda baholash asnosida mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash imkoniyatlari asoslangan. Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda hududlar soliq potentsialiga ta'sir etuvchi omillar guruhlariga ajratilgan holda tahlil etilgan. Hududlar soliq potentsialiga mualliflik ta'rifi berilgan va soliq potentsialini oshirishda amalga oshiriladigan harakatlar algoritmi hamda soliq potentsialini oshirishning ustuvor strategik yo'nalishlari ishlab chiqilgan. Olib borilgan izlanishlar natijasi uluroq ilmiy va amaliy tavsiyalar berilgan.

KEYWORDS

Mahalliy byudjet, mahalliy byudjet daromadlari, mahalliy hokimiyat organlari, soliqlar, soliq potentsiali, hududlar soliq potentsiali.

Kirish

Mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlashda samaradorlik ko'rsatkichlari mamlakat hududlari iqtisodiyotini rivojlantirish, aholining yashash darajasini oshishi bilan belgilanadi. Bunda soliqlarning samaradorlik ko'rsatkichlarining o'zaro aloqador miqdor va sifat ko'rsatkichlari bilan ifodalanadi.

Bugungi kunda soliq potentsiali, shuningdek hududlar soliq potentsiali va uni aniqlashning metodologik asoslari, uni mamlakat soliq tizimida soliqqa tortish jarayonida qo'llashning tartibi ishlab chiqilmagan. Nazarimizda mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda hududlar soliq potentsialini aniqlash va shu asosda byudjet daromadlarini shakllantirish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Hududlar bo'yicha soliq yukining o'zgarishi ulardagi yalpi hududiy mahsulot, tovar (ish, xizmat)larning oborot hajmi, investitsiyalarni jalb etish hajmi kabi bir qator iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir ko'rsatadi. Soliqlarning xo'jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo'jalik faoliyatiga va davlat manfaatlariga ta'siri foyda va zarar bilan ishlaydigan korxonalar soni, investitsiyalar hajmi, soliq potentsiali darajasi, soliq tushumlari, soliqlar va yig'imlar bo'yicha boqimandalar, jami to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning korxona jami xarajatlaridagi ulushi kabilarda namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda soliq potentsiali tushunchasi 1970-yillarda A.Volkov tomonidan talqin qilingan[1]. Shu bois, ushbu tushuncha "bizning soliq amaliyotimizga endi kirib keldi va uni hanuzgacha mavhum tarzda izohlab kelinayotir" - degan o'rsinsiz xulosaga qo'shilish qiyin[2].

A.Volkov o'z qarashlarida soliq potentsialining absolyut va nisbiy shakllarini farqlash lozimligini ta'kidlab, absolyut soliq potentsialini "moliyaviy resurslar o'sishi bilan birday" talqin etgan. Ushbu yondashuv dastlabki qarashda biroz to'g'riday tuyuladi, chunki moliyaviy resurslarning o'sishini davlatning oldin ishlatilmay yotgan resurslarini oborotga jalb etish orqali izohlash mumkin. Biroq, bizning fikrimizcha, ushbu yondashuv "soliq potentsiali" tushunchasini tor darajada talqin etishdir. O'z vaqtida A.Lyando ham soliq munosabatlarini umumiy pul munosabatlaridan ajratib olishga harakat qilib "soliq sig'imi" tushunchasini izohlashga harakat qilgan va "soliq sig'imi koeffitsienti"ni

qo'llashni taklif etgan[3]. Biroq, u ham soliq sig'imi tushunchasini moliyaviy resurslar tushunchasi bilan birday ifoda etgan.

Tadqiqot maqsadi va usullari. Tadqiqotni amalga oshirishdan maqsad mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlashda hududlar soliq potentsialini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishishda empirik va tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Qayd etish mumkinki, bugungi kunda mahalliy byudjetlar daromadlarini barqarorligini ta'minlashdagi asosiy kamchiliklar qatoriga quyidagilar kiradi:

- byudjet daromadlarini, ya'ni soliqlarni prognozlash va shakllantirish bilan shug'ullanadigan turli davlat muassasalariga tegishli bo'linmalar tarkibida yagona uslubiy va me'yoriy-huquqiy bazaning mavjud emasligi;

- hududlar soliq potentsialini oshirishdan mahalliy davlat hokimiyati organlari manfaatdorligining yuqori emasligi;

- soliqlarni yig'ish bo'yicha noxolislikning amaliyotda keng kuzatilishi, ya'ni rejalashtirilgan soliq tushumini o'z muddatida bajarish uchun ayrim korxona yoki tashkilotlardan kelgusi davrlar uchun soliq to'lovlarning oldindan to'lanishi hollarining mavjudligi (hatto, majburiy tarzda ham to'lash holatining kuzatilayotganligi);

- to'lovga qobiliyatsiz korxona yoki tashkilotlardan undiriladigan soliqlarni moliyaviy sog'lom shu kabi boshqa xo'jalik subyektlari hisobidan kelgusi davr uchun qo'shimcha undirish bilan, shuningdek oldindan amalga oshirilgan yoki ortiqcha to'langan soliq to'lovlari uchun

1-jadval

«Hududlar soliq potentsiali» tushunchasi ta'riflari¹

Muallif	Soliq salohiyati – bu
A.M.Volkov	soliq potentsialining absolyut va nisbiy shakllarini farqlash lozimligini ta'kidlab, absolyut soliq potentsialini “moliyaviy resurslar o'sishi bilan birday” talqin etgan
A.L.Kolomiyes, A.D.Melnik	mintaqa doirasida amaldagi soliq stavkalari bo'yicha olinishi mumkin bo'lgan soliq solish bazalaridan ularni hisoblashning belgilangan tartibini hisobga olgan holda hisoblab chiqilgan byudjetga soliq tushumlarining eng yuqori ehtimol qilinadigan summasi
N.M.Sabitova	1) tor ma'noda – bu davlatda amalda bo'lgan soliq solish tizimiga muvofiq byudjetga moliyaviy to'lovlar orqali kelib tushadigan moliyaviy resurslar. 2) keng ma'noda – “aholi – xo'jalik – hudud” tizimida soliq solish orqali samarali safarbar etilishi mumkin bo'shlgan moliyaviy resurslar yig'indisi, mintaqa hududida jamiyat hayotining asosiy jarayonlari shu tizim ichida yuz beradi.
A.B.Jerebsov	1)tor ma'noda “hudud soliq potentsiali” amaldagi soliq qonunchiligiga asosan hisoblangan soliq va yig'imlarning maksimal summasidir. 2) keng ma'noda hudud rivojlanish darajasini ifodalovchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni (soliq va yig'imlar yig'iluvchanligi, o'rtacha tranzaksion soliq chegirmalari va b.) hisobga olgan holda hududning soliqqa tortiladigan resurslarning umumiy hajmi hisoblanadi
L.X.Djusoyeva	mintaqaviy iqtisodiyotning hududiy rivojlanish maqsadlari va vazifalariga muvofiq byudjet funksiyalarini amalga oshirish jarayonida byudjet daromadlarini to'plash qobiliyati
N.S.Yerko	ayni paytda mintaqada mavjud xo'jalik yuritish sharoitlarida hozirgi soliq stavkalarida mintaqa hududida olinishi mumkin bo'lgan, soliq solinadigan bazalardan ularni hisoblashning belgilangan tartibidan kelib chiqib hisoblab chiqilgan soliq tushumlarining eng yuqori miqdori
A.Ye.Suglobov	hududda haqiqatda yig'ib olish mumkin bo'lgan daromadning kutilayotgan hajmini baholash
I.L.Igonina	1) keng ma'noda – soliq solish tizimi orqali safarbar qilish mumkin bo'lgan moliyaviy resurslarning umumiy hajmi bo'lib, ideal sharoitlarda hudud qo'lga kiritishi mumkin bo'lgan eng yuqori summadan iborat. 2) tor ma'noda – soliq tizimidan foydalanganda hamda amaldagi qonunchilikka muvofiq byudjetga kelib tushadigan moliyaviy resurslar.
T.F.Yutkina	obyektiv iqtisodiy atama, ya'ni bir qator farqlar (til, amaliyotda ularni formallashtirish tartibi)ga qaramay o'z obyektivligini yo'qotmaydigan muayyan jarayonlarning umumlashtiruvchi (integral) ko'rsatkichi
George Chun-Yan Kuo	soliq to'lovchilarning soliq to'lay olish yoki davlatning daromad olish qobiliyatidir
A.X.Islamkulov	hudud soliq potentsiali hudud miqyosida undirilishi mumkin bo'lgan soliq summalari yig'indisidir.
L.A.Bozorova	soliq qonunchiligining amal qilishi sharoitida tahlil etilayotgan davrdagi soliq, boj to'lovlarning ehtimol qilinadigan maksimal summasi, shuningdek soliq va bojxona organlarining nazorat ishlari natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliq to'lovlari summalari, bu haqiqiy yig'ilgan soliqlar miqdori bilan byudjet daromadlarini potentsial to'planishining qobiliyati o'rtasidagi farqdir.
U.A.Yuldasheva	soliq siyosati va davlatning soliq siyosatiga muvofiq soliq organlari tomonidan vositachilik qilingan muayyan vaqt davomida soliq tizimining joriy modeli doirasida ma'lum bir hududning xo'jalik yurituvchi subyektlaridan soliqlar, to'lovlar va boshqa majburiy to'lovlar shaklida to'plangan byudjet tizimi daromadlarining maksimal miqdoridir.

Soliq to'lovchilar foydasiga rag'batlantirish chora-tadbirlar qo'llanilmasligi va shu kabilar. Bugungi kunda ko'pchilik iqtisodchilar soliq potentsialini moliyaviy resurslar bilan birday talqin etmoqdalar.

Bizning fikrimizcha, ushbu tushunchalar mazmuni bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ularni birday talqin qilish to'g'ri emas. Hudud moliyaviy resurslarini

uning soliq imkoniyatining foydalanilayotgan bir qismi deb, ya'ni hududda mavjud resurslardan foydalanishdan turli iqtisodiy subyektlar olgan pul daromadlari va jamg'armalari sifatida talqin etish mumkin.

Hududlarning moliyaviy imkoniyatlarini tavsiflovchi tayanch ibora, soliq potentsiali tushunchasi hisoblanadi. Hozirgi kunda mazkur tushuncha talqiniga iqtisodchi-olimlar turlicha yondashmoqda. Ularning bir guruhi "soliq potentsiali - soliq to'lovchilar to'lashlari lozim bo'lgan majburiyatlarning jami"[4] sifatida, boshqa bir guruhi esa, "byudjet qonunchiligida moliya yili davomida tegishli hududda yig'ilishi lozim bo'lgan soliqli to'lovlar miqdori"[5] sifatida, yana bir vakillari esa, "soliq potentsiali - hududning istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlaridan kelib chiqib, erishilishi lozim bo'lgan soliq tushumlari darajasining ko'rsatkichidir"[6] kabi ta'rif beradilar.

Odatda ko'pincha moliyaviy resurslar tarkibi tahlilida davlatning, hududlar xo'jalik subyektlarining oxirgi vaqtlarda aholining ham moliyaviy resurslari ajratib ko'rsatilmog'da. Shu boisdan bo'lsa kerak, ayrim mualliflar hudud soliq potentsiali tarkibida huquqiy shaxslar va aholi moliyaviy imkoniyatlarini ajratib ko'rsatayotirlar[7].

Fikrimizcha, bunday tavsif ham biroz noo'rindir. Soliq potentsiali tushunchasi ko'p jihatdan davlat, alohida hudud yoki mahalliy boshqarish bo'g'ini (hududiy yoki mahalliy byudjetlar) uchun xosdir. Garchi korxonalar soliq imkoniyati haqida gapirish mumkin, biroq aholi soliq imkoniyatini baholash o'ta mushkul jarayondir.

Ushbu yondashuvlarning ahamiyatli jihati hududlar soliq potentsialini oshirish zarurligi haqidagi bashoratlardir. Biroq, mazkur qarashlar bir tomonlama xususiyatga ega bo'lib, mualliflarning subyektiv tadqiq predmeti doirasi bilan cheklanib qolgan.

Hudud soliq potentsialini esa "hududda mavjud resurslarning ma'lum davr mobaynida turli iqtisodiy subyektlarga daromad keltira olish salohiyati" deb izohlash lozim. Ushbu salohiyat amalga oshmay qolishi yoki ishlatilmay qolishi ham mumkin, shuning uchun ham moliyaviy imkoniyat – baholovchi, ehtimoliy tushunchadir.

Ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda hududlar soliq potentsialini mahalliy byudjetlar moliyaviy imkoniyatlarini talqin etilgandagi kabi qator jihatlarini hisobga olish zarurligi ta'kidlanadi. Darhaqiqat, asosli tarzda, mahalliy byudjetlar moliyaviy imkoniyatlari doirasini daromadlar bazasi bilangina cheklab qo'ymasdan, balki uni o'sib borayotgan majburiyatlari sur'atlariga muvofiq tarzda davlatning qo'shimcha tadbirlari tizimidagi aniq choralar bilan ham muvofiqlashtirib borish lozimligini ta'kidlash joizdir[8]. Shunga ko'ra, mahalliy byudjetlar moliyaviy imkoniyati uning xarajatlari dinamikasidagi o'sish sur'atlariga mos tarzdagi va jahon andozalariga mos byudjet me'yorlarining bajarilishini ta'minlashga imkon beruvchi daromad bazasining shakllanishidir degan xulosani berish mumkin.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlar tomonidan ham hududlar soliq potentsiali haqida fikr-mulohazalar va yondashuvlar bildirilgan. Jumladan, F.Mirzayev o'z ilmiy izlanishlarida "soliq yig'iluvchanligi darajasini hududlar soliq potentsiali asosida baholash uslubini taklif etgan hamda hududning joriy hisobot davri uchun soliq potentsialini hisoblash bo'yicha o'z yondashuvini bildirgan"[9].

A.Islamkulovning fikricha «hudud soliq potentsiali soliq to'lovchilar soliq potentsialidan iborat bo'lib, mahalliy byudjetlar soliqli daromadlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi asosiy, yirik soliq to'lovchilarning soliq potentsialidan tarkib topadi. Hudud soliq sig'imi esa hudud miqyosida undirilishi mumkin bo'lgan soliq summalarini yig'indisidir»[10]. U. Pardayev esa davlat byudjeti daromadlarini rejalashtirishda soliq potentsialidan foydalanish zarurligini e'tirof etgan holda, soliq potentsiali yuzasidan o'z qarashlarini ilgari surgan[11].

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ushbu ishni shakllantirish uchun dastlab, hududlar darajasida soliq siyosatining maqsadi va vazifalarini, davlat va alohida hudud iqtisodiy rivojlanish strategiyasi doirasida chora-tadbirlarni belgilab olish muhimdir. Shuningdek, mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish uchun birlashtirilgan soliqlar turlari hamda ular tarkibi ham hududlar soliq potentsialini belgilovchi muhim omillardan sanaladi.


Hududlar soliq potentsialini shakllantirish va baholash orqali mahalliy byudjetlar daromadlarida soliq tushumlari barqarorligini ta'minlashda foydalanish muhimdir. Keng ma'noda "soliq salohiyati" hududning soliqqa tortiladigan resurslari yig'indisi nazarda tutiladi. Tor ma'noda "soliq salohiyati" amaldagi qonunchilikka muvofiq soliqlar va yig'imlar tushumlarining eng yuqori summasidir.

Hududlar soliq potentsialini oshirish jarayonida mahalliy hokimiyat darajasida boshqaruv mexanizmini takomillashtirish, hududlar soliq siyosatidagi kadrlar tarkibini rivojlantirish hamda hududlar soliq tizimiga tuzatishlar kiritish asosida mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini erishishga asosiy e'tibor qaratilishi lozim.

Hududlar soliq potentsialini oshirishda tizimli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar jarayonida hududni rivojlantirish istiqbollarini tahlil etish, reja tuzish va amalga oshirish, shuningdek olingan natijalarni taqqoslash hamda ijrosini nazorat qilishdan tarkib topadi[12].

ekanligini, sug'urta kompaniyalari duch kelishi mumkin bo'lgan barcha tavakkalchiliklarga mos ravishda kapital yetarli bo'lishini ko'rsatdi [8.10].

Amalga oshirilgan tadqiqot natijasida mahalliy sug'urtalovchilarning kapital yetarliligi normativi xalqaro standartining mamlakatimizda joriy etilishi uchun sug'urta kompaniyalarining yetarli darajada texnik va tashkiliy tomondan tayyorgarlik ko'rishlarini ta'minlash zarurligi, bu sohani chuqur biladigan malakali mutaxassislarni jalb qilish lozimligi aniqlandi.



1-rasm. Hududlar soliq potentsialini aniqlash va amalga oshirish bosqichlari²



2-rasm. Hududlar soliq potensialini oshirishda amalga oshiriladigan harakatlar algoritmi³


Har bir iqtisodiy hududning soliq imkoniyatlarini o'rganib chiqish va shu asosda soliq siyosatini yuritishda yagona hayotiy uslubiy yondashuvning mavjud emasligi mazkur masalaning yechimi yanada chigallashuvini keltirib chiqaradi. Soliq salohiyati iqtisodiyot holatining o'ziga xos moliyaviy indikatori bo'lib, u soliq solishning yakuniy manbasini hamda byudjetga soliq ushlanmalari ulushini belgilab beradi. Soliq salohiyati mavjud resurslardan to'liq foydalanganda mavjud soliq siyosatini amalga oshirishning muayyan soliq obyektlariga nisbatan qo'llaniladigan tarkibiy parametri sifatida qaralmog'i kerak.

Umuman, soliq potensialini, uning iqtisodiy mohiyatining kompleks tarzda iqtisodchi olimlar tomonidan ochib berilmaganligini alohida qayd etib o'tish maqsadga muvofiqdir. Lekin iqtisodchi olimlarning ilmiy-nazariy talqinlari va qarashlarini o'rganib chiqqan holda, qolaversa,


mustaqil tarzda olib borilgan izlanishlar natijasida kelingan xulosalarga tayanib, soliq potensialini tushunchasini quyidagicha ta'riflash o'rinni deb

hisoblaymiz: hudud soliq potensialini – bu hududlar miqyosidagi soliq yig'imlarining mumkin bo'lgan yuqori darajasini aks ettiruvchi va byudjet daromadlari samarali ijrosini ta'minlash orqali byudjet resurslari fondini hosil qilish bilan bog'liq bo'lgan davlat, korxonalar va fuqarolar o'rtasida paydo bo'luvchi imperativ moliyaviy munosabatlar yig'indisini tavsiflovchi iqtisodiy tushunchadir.

Bugungi kunda hududlar soliq potensialini aniqlash va shu asosda mahalliy byudjetlar daromadlar bazasini kengaytirish ustuvor vazifalardan hisoblanadi.



3-rasm. Hududlar soliq potensialini oshirishning asosiy yo'nalishlari⁴



4-rasm. Hudud soliq salohiyatiga ta'sir qiluvchi omillar⁵

Hududiy iqtisodiyotni boshqarishning hozirgi zamon amaliyoti aynan mahalliy soliq siyosati hamda joylarda soliq salohiyatini oshirishning muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlamoqda. Hudud soliq salohiyatini ta'riflashning dolzarbligi shunda namoyon bo'ladi, u sifatli soliq ma'murchiligi vositasi bo'lib, shuningdek samarali mintaqaviy soliq siyosati modelini qurish shakli bo'lib xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, hududlar soliq potentsiali shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni ikki guruhga bo'lish mumkin. 1. Bazaviy, moliyaviy, iqtisodiy omillar.

2. Tashkiliy-huquqiy va soliq amaliyoti me'yoriy asoslari amal qilishi bilan bog'liq omillar.

Omialarning birinchi guruhiga hudud miqyosida amal qiluvchi soliq turlari, soliq stavkasi darajasi, imtiyozlarning turlari va ulardan foydalanish darajasi, soliq bazasi kengayishi uchun bevosita ta'sir etuvchi investitsion, moliyaviy asoslarning o'sishi, soliq to'lovchilar sonining ortishi, soliq madaniyati va soliqlarni to'lovchanligining o'zgarishini kiritish lozim.

Omialarning ikkinchi guruhiga esa soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar, davlatning hududiy taraqqiyot dasturlarining qabul qilinishi va uning vazifalari ijrosi jarayonida ko'zda tutiluvchi soliq tadbirlari, maxsus soliq rejimlarini qo'llash, mahalliy byudjetlarni moliyaviy tenglashtirish davlat siyosatidagi o'zgarishlar kiradi.

Hududda soliq solishning yana bir ko'rsatkichi hududda soliq yukining miqdoridir. Soliq yuki ko'rsatkichlaridan foydalanishning bir nechta asosiy yo'nalishlari ajratiladi:

- 1) hududiy byudjet daromadlarini prognozlash uchun;
- 2) soliq siyosati konsepsiyasini ishlab chiqish uchun;
- 3) soliq salohiyati miqdorining soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarga bog'liqligi darajasini baholash uchun.

Hududda soliq solish sifatining asosiy ko'rsatkichi soliqlarning yig'iluvchanligidir. Soliqlarning yig'iluvchanligi qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakat soliq tizimi o'z funksiyalarini shunchalik yaxshi bajarayotgan bo'ladi. Soliqlarning yig'iluvchanligini oshirishga qaratilgan choralar byudjet va soliq tizimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi, ularning xavfsizligini oshiradi[13].

Mamlakat hududlari mahalliy byudjetlari daromadlarini tartibga solishda quyidagilar muhim omil sanaladi:

1. Mahalliy o'z-o'zini boshqarishda soliqlarni me'yoriy tartibga solish.
2. Ko'p ukladli iqtisodiyot asoslarini shakllantirishda soliqlar iqtisodiy kategoriya sifatida qaralishi.
3. Mustaqil hududiy iqtisodiyotda iqtisodiy islohotlar tizimi.
4. Hududlar iqtisodiyoti taraqqiyotida mahalliy hokimiyat organlari ma'suliyati va vakolati.

Mamlakatning moliya hamda soliq-byudjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiy taraqqiyot yaqin istiqbolini ta'minlashda muhim o'rin egallashini inobatga olganda, hududning

moliyaviy resurslarga va hokimiyat organlarining ularni hudud doirasida jamlash, maqsadli yo'naltirilishini ta'minlash imkoniyatlariga bo'lgan bog'liqlik hududlarning daromad imkoniyatlarini sifatli hamda obyektiv baholash va oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Mazkur ishning tez hamda samarali hal etilishida eng muhim ahamiyatga ega bo'luvchi omil bo'lib, joylardagi mahalliy davlat hokimiyati organlarining hududlar soliq potentsialini oshirishdagi manfaatdorligini oshirish masalasining to'laqonli ravishda o'z yechimini topishi hisoblanadi. Bu esa hududlarning daromad imkoniyatlarini obyektiv baholashni va uni mustahkamlashni yanada takomillashtirishga qaratilgan eng samarali yo'l hisoblanadi.

Xulosa. Nazarimizda, bugungi kunga kelib soliq tushumlari to'g'risidagi dalilli ma'lumotlarga asoslangan usuldagina foydalanish bilan ishlab chiqilgan uslubiyot asosida amalga oshiriladigan hududlar mahalliy byudjetlar daromadlarini rejalashtirish samarasiz bo'lib qolmoqda.

Mahalliy byudjetlarga birlashtirilgan soliqlar va yig'imlar mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish manbaini vujudga keltirish, tabiiy va boshqa resurslarni takror ishlab chiqarish, davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy idoralarning faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratish maqsadini ko'zlaydi.

Soliq-byudjet amaliyotida hududlarning iqtisodiy yuksalishida soliq potentsialini hisoblashning mutloq zarurligini tan olgan holda, hududlar soliq potentsialini kalendar yili va istiqbolli davr uchun olib qarash lozim.

Hududlar soliq potentsialini sifatli tarzda baholash va unda baholash usullarini tanlash juda muhim hisoblanadi. Lekin vatanimiz hamda xorijlik iqtisodchi-olimlarning ishlari o'rganish natijalari hududlar soliq potentsialini baholashning yagona yondashuvi mavjud emasligi to'g'risida xulosa qilishga va mavjud usullarni esa quyidagi guruhli belgilari bo'yicha tasniflashga imkon berdi:

- soliq to'lovlarini to'lash shakllari bo'yicha;
- makroiqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha;

Hudud soliq potentsiali - uning miqyosida amaldagi soliq qonunchiligidan kelib chiqib, maksimal darajada yig'ilishi mumkin.

bo'lgan soliq tushumlari majmuidir. Hududlar soliq potentsialini hisoblab chiqish joylardagi soliq inspeksiyalari zimmasiga moliya organlari bilan kelishilgan holda yuklatilishi lozim. Hududlar iqtisodiy imkoniyatlarining yaxshilanib borishi ularning soliq potentsiali darajasi oshishiga ham olib keladiki, bu hol bevosita hududlar daromadlari oshib borishi natijasiga asoslanadi.

Shuni ham alohida qayd etish lozimki, hududlar soliq potentsialining o'zgarishi soliq qonunchiligi tizimidagi yuz bergan o'zgarishlar bilan bog'liq bo'ladi. Davlat byudjetiga tushadigan soliqlar miqdorini oshirishning yagona yo'li hududlarning soliq potentsialini oshirib borishdan iboratdir. Bu jarayon hududda soliq to'lovchilar sonining ortishi va soliq bazasining kengayishi kabi omillarga bog'liqdir. Bu esa soliq tizimida uzluksiz ravishda doimiy islohotlarni olib borish hamda mahalliy

byudjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlashda hududlar soliq potensialini oshirish va uni takomillashtirib borishni talab qiladi.

References:

1. Волков А.М. Перспективное планирование финансовых ресурсов. -М.: Финансы, 1976, с. 149-150.
2. Коломиец А.Л., Мельник А.Д. О понятиях налогового и финансового потенциалов регионов //Налоговый Вестник, 2000, №1, с.3.
3. Коломиец А.Л., Мельник А.Д. О понятиях налогового и финансового потенциалов регионов //Налоговый Вестник, 2000, №1, с.3.
4. Кузнецов С.П. Местное самоуправление: новый этап становления. // «Финансы» №1, 2003, стр. 13-16.
5. Сабитова Н.М. О понятии финансового потенциала региона и методологии его оценки. // «Финансы» №2 2003, с.63-65.
6. Кашина Н.В. Налоговое потенциал в системе бюджетного прогнозирования. // «Финансы» №2, 2002,с.78-79; Кашина Н.П. Использование налогового потенциала региона в системе государственного финансового планирования.// М.: «Финансы и статистика». 2003, с.246; Коршунов Л.А. Налоговые ресурсы региона в условиях перехода к рыночной экономике. // М.: «Финансы и статистика» 2002, с. 214.
7. Коломиец А.Л., Новикова А.И. О соотношении финансового и налогового потенциалов в региональном разрезе. //Налоговый Вестник, 2001, №3, с.5.
8. Сабитова Н.М. О понятии финансового потенциала региона и методологии его оценки//Финансы, 2003, №2, с. 63-65.
9. Mirzayev F.I. O'zbekistonda soliq yig'iluvchanligi darajasini oshirish yo'llari. // i.f.n. ilmiy darajasi olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: BMA, 2012. – B.5.
10. Islankulov A.X. Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda soliq potensialidan foydalanish masalalari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2017-yil.
11. Pardayev U.U. Davlat byudjeti solikli daromadlarini rejalashtirishda soliq potensialidan foydalanish // Moliya, 2013-yil 5-son. – Toshkent: 2013. – B.65-70.
12. Мейлиев О.Р. Налоговые факторы экономического развития регионов // Экономика и бизнес: теория и практика. 2017. №5. <https://cyberleninka.ru/article/n/nalogovye-factory-ekonomicheskogo-razvitiya-regionov>.
13. Богданов А.С. Формирование налоговой политики региона с целью обеспечения его экономической безопасности. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. 2014 г,42-стр.